

# **TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR FOYDALANISH MEKANIZMI**

## **МЕХАНИЗМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ**

### **MECHANISMS FOR THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES TO INCREASE THE EFFICIENCY OF EDUCATION**

**Zulxumor Xamrayeva**

**JDPI 1- bosqich magistranti**

#### **Annotatsiya**

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan TSO, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi.

#### **Аннотация**

По мнению преподавателей, исследователей и практиков, изучающих проблемы педагогической технологии, педагогическая технология связана не только с информационными технологиями, но и с ТСО, компьютером, дистанционным обучением, которые необходимо использовать в учебном процессе или с применением различных методик.

#### **Annotation**

According to teachers, researchers and practitioners who study the problems of pedagogical technology, pedagogical technology is associated not only with information technology, but also with TCO, computer, distance learning, which must be used in the educational process or using various methods.

**Kalit so'zlar:** interaktiv, metod, innovatsion, texnologiyalar, pedagogik, axborot.

**Ключевые слова:** интерактив, метод, инновация, технология, педагогика, информация.

**Keywords:** interactive, method, innovation, technology, pedagogy, information.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi talaba asosiy figuraga aylanadi

Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ro'li benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarining bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi .

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- O'quvchi-talabalarining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etishi;

- O'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

- O'quvchi-talabalarning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har-bir masalaga ijodiy yondashgan xolda kuchaytirishi;

- Pedagog va o'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan TSO, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi.

**Sinkveyn usuli.** Sinkveyn - fransuz tilida «5 qator» ma'nosini bildiradi. Sinkveyn- ma'lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea, mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi so'zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish- murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

- Sinkveyn tuzish qoidalari:
- 1-qator: Mavzu bir so'z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi).
- 2-qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).
- 3-qator: Mavzu doirasidagi hatti-harakatni uchta so'z bilan ifodalanadi. (3 ta fe'l yoki ravishdosh yoziladi).
- 4-qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr yoziladi. (4 ta so'zdan iborat jumla yoziladi).
- 5-qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosi unga yaqin bo'lgan bitta so'z yoziladi (mavzuga sinonim so'z yoziladi). Misol:

- Aqliy hujum (Breynstorming). Aqliy hujum -

g'oyalarni generatsiya qilish usuli. Bu metodning mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni yechish jarayonlarini vaqt bo'yicha bir qancha bosqichlarga (g'oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqish) ajratishdan iborat.

- «Aqliy hujum»dan maqsadli foydalanish o'quvchilarning ijodiy va nostandart tafakkurlashini rivojlantiradi. Usulni qo'llash uchun dastlab yig'ilgan guruh oldiga muammo quyiladi. Bu muammoni yechimiga oid munozarada barcha o'quvchilar ishtirok etadilar va o'z fikrlarini bildiradilar. Bunda bahslashuvchilarga miyaga qanday fikr quyilib kelsa, uni tanqidsiz va asoslamay erkin, «tilga nima kelsa» aytish imkoniyati beriladi. Dastlabki bosqichda hech kimni o'zga kishi g'oyalariga «hujum» qilishi yoki baholashiga haqqi yo'q. «Aqliy hujum yo'li bilan qisqa daqiqalarda o'nlab g'oyalarni yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud bo'ladi

- Aqliy hujumning qoidalari:
- Fikr va g'oyalar hech qanday cheklanmagan holda iloji boricha qattiqroq aytilishi lozim;
- Bildirilgan fikr va g'oyalar takliflar berish to'xtatilmaguncha muhokama qilinmaydi, baholanmaydi;
- Bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar hisobga olinadi;
- Qancha ko'p g'oya va fikrlar bildirilsa shuncha yaxshi; □ Fantastik, qo'qqisdan miyada paydo bo'lgan fikrlar ham muhim;
- Bildirilgan fikr yoki g'oyalar u yoki bu ishtirokchiliki, deb ajratilmaydi, ular muallifsizdir;
- Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin;
- Barcha aytilgan takliflar yozib boriladi;
- Takliflarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi.
- Fikr yoki g'oyalarning ma'qulini tanlash alohida «tanqidchilar» yoki guruhning norasmiy liderlari tomonidan amalga oshiriladi

- B-B-B (bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) jadvali. Innovatsion usullardan biri bu B-B-B (bilamiz, bilishni xohlaymiz, bildik) jadvali bilan ishlashdir. «B-B-B- (bilamiz, bilishni xohlaymiz, bildik) usuli mashgʻulot jarayonida matnni tushunishni kuzatishdagi grafik tashkilotchi hisoblanadi».

- Venn diagrammasi. Venn diagrammasi bir-birini kesadigan ikki yoki undan koʻp doiralarda koʻriladi, ular oʻrtasida yozish uchun yetarli joy qolishi kerak. U gʻoyalarni zidlash uchun ishlatilishi yoki ularning umumiy xususiyatlarini (nimada ular kesishadi) koʻrsatishi kerak. Masalan, oʻquvchilar Xristofor Kolumb ekspeditsiyalarini Marko Polo ekspeditsiyalari bilan taqqoslaydilar deylik. Venn diagrammasi bir-biriga yopishgan ikki doira bilan birga ushbu ekspeditsiyalar oʻrtasida zidlik oʻtkazish, ayni vaqtda ularning umumiy unsurlarini koʻrsatish imkonini beradi.

- XULOSA: Inter faol usullar orqali taʼlim samaradorligi oshadi, oʻqituvchi va talaba oʻrtasida oʻzaro hamkorlik; talabalarda erkin ijodiy fikrlash koʻnikmalari rivojlanadi va shaklladi. Bu innavation yondashuvda talaba shaxsi taʼlimda markaziy figuraga aylanadi.

- Oʻqitishda noanʼanaviy shakllar interfaol usullarni 3 guruhga ajratish mumkin: oʻqitishda hamkorlik, modellashtirish, oʻrganishning tatqiqot modeli.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Djamilova N.N. va Xasanboeva O. Pedagogika fanini oʻqitish metodikasi.T.: “Oʻzbekiston”. 2008 y. Metodik qoʻllanma
2. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya.- Toshkent: Oliy pedagogika instituti, 2003.
3. Tolipov Oʻ., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.